

O'RTA OSIYO QOYA TOSH RASMLARI

To'ramirzayev Rustamjon

Namangan viloyat tarix va madaniyati

davlat muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududidagi qoyatosh suratlarining xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qoyatosh tasvirlarida aks etgan odamlar, jang va qurollar, kiyim-kechak, xo'jalik buyumlari hamda yovvoyi va xonaki hayvonlar tasvirlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: qoyatosh suratlari, petrogliflar, ibtidoiy jamiyat, qadimgi madaniyat, yovvoyi va xonaki hayvonlar, arxeologik yodgorliklar, Sarmishsoy, Zaruatsoy.

O'rta Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi maskanlaridan biri hisoblanadi. Bunga dalil qilib qadimgi rimlik tarixchi Trog Pompeyning "O'rta Osiyoliklar qadimiylikda misirliklar bilan baxslasha oladilar" deb aytgan so'zlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. O'rta Osiyoning vodiy, dasht, tog' va tog' oldi joylaridan tosh davri, bronza va qadimgi davrlarning barcha bosqichlariga mansub juda ko'p yodgorliklar topilgan. Bu topilmalarning natijalari ko'plab ilmiy maqolalar va monografiyalarda o'z aksini topgan.

Hududdagi qadimiy tasvirlar haqida dastlabki yozma ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning asarlarida uchraydi. Olim o'lkadagi sirli tasvirlar haqida so'z yuritar ekan, ushbu rasmlar mahalliy aholining diniy e'tiqodlari va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qoyatosh tasvirlari eng qadimgi san'at namunalari sifatida tarix va madaniyatni o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ular ibtidoiy jamiyat tafakkuri, ijtimoiy hayoti va estetik qarashlarini aks ettiradi.

Qoyatosh rasmlari Qozog'iston hududida ham keng tarqalgan bo'lib, ular haqidagi dastlabki ilmiy ma'lumotlar XVII asr olimlari D.Messersmidt, F.Stralenberg, I.Gmelin va G.Miller asarlarida qayd etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida V.V.Bartold, N.N.Pantusov, A.M.Nikolskiy, G.V.Fisher, B.A.Kallaur, M.A.Xirgof, I.Polosovskiy va boshqa tadqiqotchilar O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'ylab olib borgan ilmiy safarlari davomida ko'plab yangi qoyatosh tasvirlari manzillarini aniqladilar.

XX asr boshlarida Janubiy Qozog'iston hududida joylashgan ko'plab yodgorliklardan qoyatosh rasmlarining yangi namunalari topildi. Sovet davrida bu sohadagi izlanishlar yanada jadallashib, A.V.Gorodtsov, S.S.Chernikov, A.G.Maksimova, X.A.Oltimishev, T.N.Senigova, A.G.Medoyev, P.I.Marikovskiy, M. K. Qodirov, A. N. Marshev, Ya.A.Sher va L.R.Kizlasov kabi olimlar tomonidan tizimli tadqiqotlar olib borildi. Natijada Qozog'istondagi qoyatosh rasmlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar va monografiyalar chop etildi.

O'zbekistonda qoyatosh tasvirlarini ilmiy asosda o'rganish ishlari nisbatan kech boshlangan bo'lsa-da, XX asrning 30-yillaridan boshlab bu yo'nalishda jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur sohada G.V.Parfenov, A.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, M.E.Masson, A.Formozov, B.V.Lunin, I.F.Pomaev, L.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, G.V.Shishkin kabi olimlarning ilmiy hissasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Qoyatosh rasmlarini o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish orqali ibtidoiy san'at, diniy tasavvurlar va qadimgi jamiyat hayotini ilmiy asosda tadqiq qilish mumkin. O'rta Osiyoning ajralmas qismi bo'lgan Qirg'iziston tog'li hudud hisoblanib, bu yerda qoyatosh tasvirlari keng tarqalgan. Mintaqadagi eng mashhur qoyatosh yodgorliklariga Saymalitosh, Aravan, Ayrimacho'q, Suratlisoy, Oxna va Talas atroflaridagi qoya rasmlari kiradi. Ushbu tasvirlarda tog' echkisi, arxar, bug'u, bo'ri, tulki, yo'lbars, inson va boshqa obrazlar keng tasvirlangan.

Respublikamiz hududida keng tarqalgan qoya tosh suratlarining ishlanish texnikasini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega masalalardan biridir. Chunki ushbu rasmlarning yaratilish usullari va texnik xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning davrini aniqlash imkoniyati mavjud.

Qoya toshlar, g'or va qoyatosh devorlariga ishlangan tasvirlar bajarilish texnikasiga ko'ra asosan ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tosh, temir, po'lat yoki boshqa turdagi qattiq buyumlar yordamida urib cho'kichlash, tirnash, chizish va ishqalash usulida

ishlangan rasmlar kiradi. Arxeologik adabiyotlarda bu usulda bajarilgan tasvirlar “petrogliflar”, ya’ni toshga o’yib ishlangan rasmlar deb ataladi. Bunday yodgorliklar Qorako’ngur, Chotqol, Pskom, Ugom, Ko’ksuv, Qatrontepa, Morg’uzor, Nurota, Oqtog’, Qoratog’, Qo’ytosh, Shorabuloq, Boysun va respublikamizning boshqa tog’li hududlarida keng tarqalgan.

Ikkinchi guruhga tabiiy bo’yoqlar — ko’k, qizil va och ranglar yordamida chizilgan rangli tasvirlar kiradi. Oxra bo’yoqlari bilan ishlangan bunday rasmlar hozirgi kunda asosan Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy va unga yaqin hududlarda aniqlangan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, rangli tasvirlarni bajarish texnikasi nisbatan sodda bo’lgan. Ular oddiy cho’p, qamish bo’lagi, suyak yoki teridan tayyorlangan moslamalar yordamida ishlangan bo’lishi mumkin. Biroq toshga o’yib tushirilgan suratlarning texnikasi ancha murakkab bo’lib, maxsus asbob-uskunalaridan foydalanishni talab etgan.

1966–1973-yillar oralig’ida Sarmishsoy, Boshqizilsoy, Ohangaron va Qatrontepa hududlarida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari qoya tosh suratlarning ishlanish texnikasini aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqotlar natijasida mazkur hududlardagi tasvirlarning deyarli barchasi urib-cho’kichlash usuli orqali bajarilgani aniqlangan. Shu sababli Qatrontepa va Sarmishsoy rasmlarini bir xil texnik guruhga kiritish mumkin.

Sarmishsoy suratlarning aksariyati tabiatan silliq bo’lgan qoya toshlar yuzasiga ishlangan. Ularning ayrimlarida 1–2 ta, boshqalarida esa 60–70 tagacha tasvir uchraydi. Suratlarni yaratishda tosh, temir, po’lat, jez va boshqa qattiq materiallardan tayyorlangan asboblardan foydalanilgan. Ushbu asboblarning uchli qismi tosh sirtiga muntazam urilishi natijasida turli shakl, chuqurlik va kattalikdagi izlar hosil bo’lgan bo’lib, bu holat rasmlarning texnik xususiyatlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Shuningdek, tasvirlar asbobning toshga bir yoki bir necha bor urilishi natijasida hosil qilingan. Tosh sirtidagi kuchli va yirik zarbalar tasvirning asosiy konturlarini belgilash uchun qo’llanilgan bo’lsa, mayda va chuqur bo’lmagan zarbalar ichki detallarni ifodalashda ishlatilgan. Tasvirlar qanday asbob bilan va qay tarzda ishlangani, toshning qattiqligi hamda yuzasining xususiyatlariga bog’liq bo’lgan.

Toshga ishlangan suratlarning aksariyati qadimgi davrlarga mansub bo’lib, ularni yaratishda tosh, suyak yoki qattiq yog’ochdan yasalgan asboblardan foydalanilgan bo’lishi

mumkin. Ba'zi tasvirlar esa keyingi davrlarda ishlangan bo'lib, ular texnik jihatdan nisbatan mukammalroq hisoblanadi. Bunday suratlar ayrim hollarda metall asboblarning yordamida ishlangani ehtimoldan xoli emas.

Mazkur texnika asosida ishlangan qoyatosh suratlari O'zbekiston hududidan tashqari Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va boshqa qo'shni mintaqalarda ham keng tarqalgan. Biroq har bir hududdagi tasvirlar o'ziga xos uslub va texnik xususiyatlarga ega. Shu sababli qoyatosh suratlarini to'g'ri talqin qilish uchun ularni keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganish, dastlabki amaliy tajribalar bilan solishtirish va ilmiy xulosalar chiqarish zarur. O'rta Osiyo hududidagi qoyatosh suratlari mazmuni va ifoda etilgan manzaralari jihatidan nihoyatda xilma-xildir. Hozirgi kunga qadar ushbu hududda juda ham ko'plab tasvirlar aniqlangan bo'lib, ular mazmuniga ko'ra turli xildir. Hozir ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Odamlarning tasviri. Bu turdagi rasmlar texnik va uslubiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ayrim hollarda odamlar to'liq holda, ba'zan esa faqat tananing ayrim qismlari orqali ifodalangan. Ba'zi tasvirlar sodda va sxematik shaklda ishlangan bo'lsa, boshqalari ancha mukammal tarzda bajarilgan. Odam qiyofalari asosan old tomondan tasvirlangan, ayrim hollarda yon tomondan berilgan holatlar ham uchraydi. Tasvirlarda odamlar yakka holda yoki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holatda aks ettirilgan.

Ba'zi suratlarda odamlarning boshi g'ayrioddiy shaklda tasvirlangan bo'lib, bu holat niqob yoki hayvon boshiga o'xshash maxsus libos bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Odamlar tasvirida kiyim-kechak unsurlari ham ko'zga tashlanadi: kalta chopon, belbog', bosh kiyim va oyoq kiyimlar shular jumlasidandir.

Jang va qurollarning tasviri. Jang va qurollarga oid tasvirlar O'rta Osiyo qoyatosh suratlarida muhim o'rin egallaydi. Ushbu tasvirlar ko'pincha odamlar bilan bog'liq holda ifodalangan. Qurollar orasida nayza, kamon, o'q, xanjar kabi buyumlar uchraydi. Ayrim hollarda qurollar jang yoki to'qnashuv jarayonida, ba'zan esa alohida holda tasvirlangan.

Xanjar tasvirlari shakl jihatidan uzun va o'tkir tig'li ko'rinishda bo'lib, ularning tutqich va tig' qismi aniq ajratib ko'rsatilgan. Bu tasvirlar qadimgi jamiyatda qurollarning harbiy va marosimiy ahamiyatga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Kiyim-kechak tasviri. Qoyatosh suratlarida odamlarning kiyimi aniq ifodalangan holatlar ham uchraydi. Kiyimlar asosan kalta, sodda va harakatga qulay shaklda bo'lib, qadimgi aholining turmush tarziga mos keladi. Ayrim hollarda bosh kiyim va belbog'lar alohida ajratib ko'rsatilgan.

Xo'jalik va turmush buyumlari tasviri. Ba'zi tasvirlarda arqon, o'qdon, kamon g'ilofi, bolta va boshqa xo'jalik buyumlari aks ettirilgan. Ushbu buyumlar O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi aholining kundalik hayoti, mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'qdonlar ovchilarning yelkasiga osilgan holatda tasvirlangan. Ayrim hollarda ular o'qsiz holda, boshqa hollarda esa o'qlari bilan birga ifodalangan. Arqonlar ba'zan qoramol shoxlariga bog'langan tarzda ko'rsatiladi. Boltalar tasviri kam uchraydi va ehtimol keyingi davrlarga mansub bo'lishi mumkin.

Doira yoki cho'zinchoq shaklda ishlangan tasvirlar "qopqon" sifatida talqin qilinadi. Doira shaklidagi qopqonlar hozirgi kunda ham tog'li hududlar aholisi tomonidan keng qo'llaniladi.

Qoyalarda ayrim tasvirlar mavjudki, ularning nimani anglatishini aniqlash qiyin. Shuningdek, ayrim qoyatoshlarda arab alifbosida bitilgan arabcha so'zlar ham uchraydi.

Hayvonlarning tasvirlari. Qoyatosh suratlarida turli xil hayvonlar tasviri keng uchraydi. Ularning aksariyati O'rta Osiyo, xususan hozirgi O'zbekiston hududi uchun xos bo'lgan hayvonlardir. Ushbu tasvirlar yovvoyi va xonaki hayvonlar guruhiga ajratiladi.

Yovvoyi hayvonlar. Yovvoyi hayvonlar qatoriga tog' echkisi, arxar, ibtidoiy buqa, yovvoyi sigir, qulon, bo'ri, asl bug'u, tung'iz, tulki, jayron, sayg'oq, shuningdek yirik yirtqichlardan sher, yo'lbars, qoplon, leopard, gepard va boshqa hayvonlar kiradi. Ayrim qoyalarda ilon, toshbaqa va baliq tasvirlari ham uchraydi.

Tog' echkisi. Bu hayvon tasviri qoyatoshlarda juda keng tarqalgan. Ular ba'zan yakka, ba'zan esa to'da holida tasvirlangan. Tog' echkilari uzun bo'yinli, kelishgan tana tuzilishiga ega, ikki o'tkir shoxi va qisqa dum bilan ifodalangan. Ushbu tasvirlar O'zbekiston hududida ham, O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarida ham keng tarqalgan.

Arxar (tog' qo'yi). Ayrim qoyatoshlarda tog' qo'yi deb ataluvchi arxar tasvirlari uchraydi. Ular katta va burama shoxlari bilan ajralib turadi.

Jayron. Jayron tasvirlari ham keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa qoyatosh rasmlari orasida tez-tez uchraydi. Ular ko‘pincha tog‘ echkilari bilan birga tasvirlangan.

b) Xonaki hayvonlar. Xonaki hayvonlar qatoriga ot, buqa, sigir, echki, tuya va eshak kiradi. Ushbu tasvirlar o‘z davri nuqtai nazaridan mukammal ishlangan bo‘lib, tomoshabinda kuchli taassurot uyg‘otadi.

Qoyatosh suratlarida odamlar, yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek jang va qurollar tasvirining birgalikda uchrashi ularning mazmun jihatidan boy va rang-barang ekanini ko‘rsatadi. Ayrim sahnalarda hayvonlar yakka holda, ba‘zan esa to‘da bo‘lib yoki ov jarayonida aks ettirilgan.

Yirik yirtqich hayvonlarning mayda hayvonlarga hujum qilishi, shuningdek ularning ta‘qib etilishi bilan bog‘liq sahnalar tomoshabinning diqqatini tortadi. Ba‘zi tasvirlarda yirik yirtqichlarning ibtidoiy buqalar bilan to‘qnashuvi yoki ularni quvishi ifodalangan bo‘lib, bunday manzaralar juda ta‘sirchan hisoblanadi.

Ibtidoiy buqa, yovvoyi sigir, sher, yo‘lbars, qoplon, leopard, gepard, arxar, tog‘ echkisi, jayron, sayg‘oq, qulon, tung‘iz, tulki, bo‘ri va boshqa yovvoyi hayvonlarning ov qilinishi bilan bog‘liq sahnalar alohida qiziqish uyg‘otadi.

Qoyalarda ovchilarning yakka yoki jamoa bo‘lib ov qilishi tasvirlangan sahnalar ko‘p uchraydi. Ayrim hollarda ovchilarning o‘zaro hamkorligi aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, ba‘zi tasvirlarda bu holat ifodalanmagan.

Shuningdek, kamondan uzoqqa o‘q uzayotgan merganlar, uzoq yo‘l bosib ketayotgan karvonlar, raqsga tushayotgan kishilar, ot ustida chopayotgan chavandozlar va mol haydab ketayotgan otliqlarning tasvirlari ham uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo qoyatosh rasmlarida ibtidoiy va qadimgi davr kishilarining kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari, voqea va hodisalari o‘z ifodasini topgan. Ushbu suratlar mazmun va mavzu jihatidan nihoyatda boy bo‘lib, mintaqamiz hududida aniqlangan qoyatosh yodgorliklari orasida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki ular qadimiy madaniyatimiz tarixining eng nodir manbalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Kabirov, A.Sagdullayev. “O‘rta Osiyo arxeologiyasi”. Toshkent – 1990

2. J.Kabirov. “Sarmishsoyning qoya toshlardagi rasmlar. Toshkent – 1976
3. N.A.Egamberdieva. “Arxeologiya”. Toshkent – 2011